INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

O‘ZBEKISTONDA HALOL O‘YINNING HUQUQIY TAMOYILLARI VA DOPINGNING SALBIY OQIBATLARI

Ibrohimova Aziza

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annontatsiya

Mazkur maqolada World Anti-Doping Agency tomonidan ishlab chiqilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar, ilg‘or xalqaro tajriba hamda O‘zbekiston sport tizimidagi amaldagi holat asosida doping muammosining mazmun-mohiyati, uning sport faoliyatiga salbiy ta’siri va oldini olish mexanizmlari tahlil etilgan.

Tadqiqot jarayonida sportchilar, xususan, kurashchilar misolida dopinga nisbatan munosabat, ularning axloqiy qarashlari, huquqiy xabardorlik darajasi hamda kasbiy mas’uliyati o‘rganildi. Shuningdek, doping vositalarining inson salomatligi va sport natijalariga ko‘rsatadigan ta’siri ilmiy asosda yoritildi.

Maqolada milliy antidoping siyosatining amaldagi holati baholanib, yosh sportchilarni doping xavfidan himoya qilish, ularning ongida sog‘lom turmush tarzi va halol raqobat madaniyatini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, sport faoliyatida Fair Play tamoyillarini mustahkamlash, ya’ni halollik, adolat va sport etikasi me’yorlariga rioya etish dopingga qarshi kurashning muhim omili sifatida asoslab berilgan.

Tadqiqot yakunida sport tizimida halol o‘yin tamoyillarini keng joriy etish, antidoping nazoratini takomillashtirish hamda sportchilar o‘rtasida huquqiy va axloqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit So‘zlar

Fair play, Doping, sport etikasi, antidoping siyosati, WADA, taekvondo, sportchilar sog‘lig‘i, halollik tamoyili, testlash tizimi, huquqiy me’yorlar, sportda axloq.

O’zbekistonda sportchilarning salomatligini asrash, ularni jismonan sog’lom raqobat qilishi uchun taqiqlangan vositalardan himoya qilish, mahalliy hamda nufuzli xalqaro sport musobaqalarida halol bahsni kuchaytirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi.

Bu borada davlatimiz tomonidan bir qator me’yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Prezidentimizning “Ma’muriy islohotlar doirasida O‘zbekiston Respublikasi Milliy antidoping agentligi faoliyatini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 8-maydagi qaroriga muvofiq yurtimizda Milliy antidoping agentligi o’z ishini boshladi. E’tiborlisi Markaziy Osiyo mintaqasida birinchilardan bo‘lib mazkur agentlik tashkil etildi. Butunjahon antidoping agentligi bilan keng qamrovli manfaatli hamkorlik aloqalari o‘rnatildi. Keyingi to‘rt-besh yil oralig‘ida xalqaro antidoping dasturlarida ishtirok etish, ushbu yo‘nalishda mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha yurtimizda bir qator amaliy ishlar amalga oshirildi. Ma’lum bir muddatda agentlikning yangi strukturasi, shtat jadvali tasdiqlandi. Xodimlarning lavozim yo‘riqnomalari, vazifa va funksiyalari ishlab chiqildi. Butunjahon antidoping agentligi (WADA), xorijiy davlatlarning milliy antidoping tashkilotlari, sportchilardan olinadigan sinamalarni tekshirish va tahlil etish laboratoriyalari bilan hamkorlik hujjatlari imzolandi.

Biroq, sportchilar orasida natijalarni sun'iy ravishda oshirish maqsadida dopinga murojaat qilish holatlari kuzatilmoqda. Jahon Antidoping Agentligi (WADA) ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda 362 000 dan ortiq doping sinovlari o'tkazilgan, ulardan 1,8 foizida taqiqlangan moddalarning mavjudligi aniqlangan. Bu esa har 55 ta sportchidan kamida 1 nafari dopingdan foydalanganini anglatadi. Dopingdan foydalanish nafaqat sportchining sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazadi, balki musobaqalardagi adolat tamoyilini buzadi, yosh avlodda noto'g'ri qadriyatlar shakllanishiga sabab bo'ladi.

Ayrim sportchilar anabolik steroidlar, eritropoetin, diuretiklar, yoki qon dopingi kabi usullardan foydalangan holda yuqori natijalarga erishgan, ammo keyinchalik ularning sovrinlari bekor qilingan, sport faoliyati taqiqlangan. Masalan, amerikalik velosportchi Lens Armstrong 7 marotaba Tour de France chempioni bo'lgan, ammo 2012-yilda barcha yutuqlari bekor qilinib, sportdan umrbod chetlashtirilgan. Ivan Markov bilan bog'liq holat muhim tahliliy misol bo'la oladi. Mazkur sportchi faoliyati davomida ikki marotaba doping qoidalarini buzganlikda ayblangan. Xususan, 2008-yilda Bolgariya og'ir atletika terma jamoasining bir qator a'zolari bilan birgalikda doping testlaridan o'ta olmagan va organizmida taqiqlangan anabolik steroid — metandienon moddasi aniqlangan. Natijada sportchi to'rt yil muddatga diskvalifikatsiya qilingan hamda jamoa xalqaro musobaqalardan chetlashtirilgan.

Keyinchalik, 2015-yilda ham Bolgariya og'ir atletika jamoasida yana ommaviy doping holatlari qayd etilib, ushbu jarayonda Markovning nomi yana tilga olingan. Bu esa mazkur muammoning individual emas, balki tizimli xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Mazkur holatlar sport tizimida murabbiylar, tibbiy xodimlar va boshqaruv subyektlarining ham mas'uliyati mavjudligini anglatadi.

Shuningdek, ushbu voqea sportda "fair play" tamoyillarining buzilishi nafaqat alohida sportchining faoliyatiga, balki butun jamoa va mamlakat sport obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi.

Doping muammosi nafaqat rivojlangan mamlakatlarda, balki Osiyo, Lotin Amerikasi va Yevrosiyo mintaqalarida ham dolzarb bo'lib bormoqda. Bu borada O'zbekiston ham xalqaro antidoping siyosatiga qo'shilib, Tokio-2020 Olimpiadasidan oldin 200 dan ortiq test o'tkazgan. Biroq, xalqaro me'yorlarga to'liq rioya qilish, zamonaviy test usullarini joriy etish va sportchilarni doimiy ravishda ogohlikka chaqirish zarurati mavjud. Shu sababli, doping muammosining zamonaviy sportdagi oqibatlarini chuqur o'rganish, tibbiy, ijtimoiy va huquqiy jihatdan tahlil qilish, shuningdek, unga qarshi samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish zamonaviy sport siyosatining muhim vazifalaridan biridir.

2026-yilda ham Xalqaro testlash agentligi (ITA) qaroriga asosan o'zbekistonlik 3 nafar sambochi turli muddatlarga diskvalifikatsiya qilingan. Ushbu sportchilardan xalqaro darajadagi doping ofitserlari **namuna olgan**.

1. Xakimjon Ismoilovdan musobaqa davomida olingan namuna tahlilida taqiqlangan modda — klomifen moddasi aniqlangan va sportchini 2 yilga sportdan chetlatish bo'yicha qaror chiqarilgan. Sportchining diskvalifikatsiya muddati 2025-yil 14-dekabrdan - 2027-yil 13-dekabrgacha etib belgilangan.

2. Shohruxbek G‘apurovdan musobaqa davrida olingan namuna tahlilida meldoniy moddasi aniqlangan. Sportchiga nisbatan 3 yillik diskvalifikatsiya qo‘llanilgan bo‘lib, u 2025-yil 28-oktyabrdan 2028-yil 27-oktyabrgacha amal qiladi.

3. Abduraxmon Mirzadjonovdan ham musobaqa davrida olingan namuna tahlilida taqiqlangan modda — meldoniy aniqlangan. Shunga ko‘ra sportchini 3 yilga sportdan chetlatish jazo chorasi qo‘llanilgan. Diskvalifikatsiya muddati 2025-yil 20-maydan - 2028-yil 19-maygacha belgilangan.

Mazkur sportchilardan namuna olingan kundan boshlab diskvalifikatsiya muddati boshlangunga qadar qayd etilgan barcha musobaqa natijalari bekor qilingan. Shuningdek, diskvalifikatsiya jazo muddatini o‘tayotgan sportchi, har qanday turdagi mahalliy va xalqaro musobaqalarda, terma jamoa bilan va jamoaga tegishli bo‘lgan o‘quv mashg‘ulot bazalarida ishtirok etishi taqiqlanadi. Ushbu holat qayd etilgan taqdirda sportchiga qo‘shimcha muddat belgilanishi mumkin. Antidoping tizimi sportda halol, adolatni ta‘minlashga qaratilgan bo‘lib, unda sportchilarning huquqlari va majburiyatlari aniq belgilangan.

Sportchilar va ularning vakillari antidoping qoidabuzarligini sodir etmasligi uchun tegishli Milliy antidoping tashkilotlardan antidoping qoidalari, test jarayoni, sportda taqiqlangan moddalar ro‘yxati va TI (terapevtik istisno) haqida to‘liq axborot olish huquqiga ega. Musobaqalarda ishtirok etish - sportchi dopingdan holi musobaqalarda qatnashish, sog‘lom raqobat qilish va o‘z salomatligini himoya qilishi zarur. Doping test olish jarayoni har bir sportchiga teng sharoitda qo‘llanilishi va diskriminatsiya qilinmasligi kerak. Agar doping qoidalabuzarligi bo‘yicha ayblovlar bo‘lsa, sportchi mustaqil va adolatli ko‘rikdan o‘tish, shikoyat qilish va sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Butunjahon antidoping agentligi (WADA) yangilangan qoidalari talablari, qoidabuzarliklar uchun qo‘llaniladigan jiddiy sanksiyalar, jarimalar va sportdan chetlatish kabi choralar haqida yosh sportchilarga aniq ma’lumotlar berilishi zarur. Shu bilan birga mutaxassis shifokorlar tomonidan sportchilarga iste’mol qilinayotgan vitamin va dori vositalarining tarkibi, ularda taqiqlangan moddalar mavjud yoki yo‘qligini aniqlash hamda to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berilishi kerak. Shu maqsadda O‘zbekiston Milliy antidoping agentligi tomonidan sportchilarni tayyorlash va dopingga qarshi kurashni samarali tashkil etish maqsadida ADAMS tizimidan sportchilar to‘g‘ri foydalanishi bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Agentlik mutaxassislari reja asosida har bir sportchiga ushbu tizimdan to‘g‘ri foydalanish qoidalarini bosqichma-bosqich tushuntirib bermoqda. Xususan, eshkak eshish, gimnastika, karate, dzyudo, zamonaviy beshkurash, taekvondo va sambo sport turlari bo‘yicha sportchilarga joylashuv ma’lumotlarini kiritishdan tortib, test natijalari va tibbiy ma’lumotlarni to‘g‘ri qayd etishgacha bo‘lgan jarayonlar amalda ko‘rsatib beriladi.

WADAning 2022-yilgi global hisobotiga ko‘ra, yil davomida 362 mingdan ortiq doping testlari o‘tkazilgan bo‘lib, shundan 1,8 foizi musbat natija bergan. Bu esa har 55 ta testdan birida taqiqlangan moddalar qo‘llanilganini anglatadi. Ayniqsa, Hindiston, AQSH va Rossiya kabi sport salohiyati yuqori bo‘lgan mamlakatlarda musbat holatlar soni ko‘pligi alohida ta’kidlanadi. Rossiyalik olimlar E. A. Drozdov va T. V. Makarova (2018) o‘zlarining antidoping monitoringi haqidagi tadqiqotlarida Rossiyada dopinga qarshi kurashda

muvofiqlashtirish muammolari, shuningdek, laboratoriyalar faoliyatida mustaqillik yetishmasligi muammosini ko‘tarishgan. Ularning fikricha, sportchilarga qo‘yiladigan haddan tashqari yuqori talablar, federatsiyalarning bosimi va ba’zan dori-darmonlarning nazoratdan chetda qolishi doping qo‘llanishiga yo‘l ochadi. Masalan, Rossiya sportida birgina 2015-yilda aniqlangan 80 dan ortiq holatdan so‘ng, davlatning ko‘plab federatsiyalari xalqaro musobaqalardan chetlashtirilgan edi. Hattoki sportchilar xalqaro turnirlarda davlat bayrog’isiz ishtirok etishgan. Qozog‘iston esa so‘nggi yillarda 1200 dan ortiq testlar o‘tkazgan bo‘lib, 2,3% musbat natijalar bilan doping nazorati borasida muvozanatli yondashuvni rivojlantirmoqda. O‘zbekiston bu borada mustahkam huquqiy va institutsional asoslar yaratmoqda va xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda o‘z antidoping siyosatini kuchaytirishga intilmoqda.

Doping vositalarining asosiy turlari va ularning organizmga salbiy ta’siri


Doping vositasi turi	Foydalanish maqsadi	Organizmga salbiy ta’siri
Anabolik steroidlar	Mushak massasini oshirish kuchni ko‘paytirish	Jigar shikastlanishi, yurak kasalliklari, gormonal buzilishlar
Eritropoetin (EPO)	Qon tarkibidagi kislorod tashuvchi hujayralarni ko‘paytirish	Qon quyuqlashuvi, insult xavfi, yurak xurujlari
Stimulantlar (amfetamin, kofein)	Charchoqni kamaytirish, hushyorlikni oshirish	Asabiylik, yurak urishining tezlashishi, qaramlik
Diuretiklar	Vazn yo‘qotish yoki taqiqlangan moddalarning izini yashirish	Organizmning suv-tuz balansining buzilishi, buyrak kasalliklari
Qon dopingi (autolog yoki allogen)	Jismoniy chidamlilikni oshirish	Qon infeksiyalari, yurakka ortiqcha yuklama

O’zbekiston sport feseratsiyalarida dopinga qarshi testlar soni va ijobiy natijalar foizi

Sport turi	O’tkazilgan testlar soni (2023)	Ijobiy natijalar soni	Ijobiy natijalar foizi

Taekvondo	120	2	1.7
Yengil atletika	180	5	2.8
Og'ir atletika	210	8	3.8
Erkin kurash	150	3	2.0
Boks	170	4	2.4

2020-2024 yillarda doping holatlari statistikasining hududlar kesimidagi tahlili



Milliy sport turlari ichida o'zining qadimiyligi, ma'naviy va madaniy ildizlari bilan ajralib turadigan o'zbek kurashi bugungi kunda xalqaro maydonda ham munosib o'rin egallab kelmoqda. Kurashning eng muhim tamoyillaridan biri — "halol" tushunchasi bo'lib, u nafaqat sport natijasini, balki sportchining axloqiy pozitsiyasi va insoniy qadriyatlarini ham ifodalaydi. Halol g'alaba — bu raqibni hurmat qilgan holda, qoidalar doirasida, hech qanday g'irromliksiz qo'lga kiritilgan yutuqdir. Bu esa sportning asl mohiyatini belgilab beruvchi eng muhim mezonlardan biridir.

Bugungi global sport tizimida 90 dan ortiq rasmiy sport turlari mavjud bo'lsa-da, ularning barchasida ham "fair play" — halol o'yin tamoyiliga to'liq amal qilinmoqda, deb bo'lmaydi. Professional sportning murakkablashuvi, iqtisodiy manfaatlarning kuchayishi hamda raqobatning keskinlashuvi natijasida ayrim hollarda sport etikasi buzilish holatlari

kuzatiladi. Xususan, sport kontraktlarida belgilangan adolat va halollik normalariga barcha sportchilar birdek rioya qilmaydi. Natijada g‘irrom o‘yinlar, raqibga ataylab zarar yetkazish, uning jismoniy holatini izdan chiqarishga qaratilgan harakatlar, psixologik bosim o‘tkazish yoki oldindan kelishilgan natijalar kabi salbiy holatlar yuzaga keladi.

Bunday holatlar nafaqat sport natijasining haqqoniyligiga, balki sportchining sha’ni, qadr-qimmati va tomoshabinlarning sportga bo‘lgan ishonchiga ham jiddiy putur yetkazadi. Shu nuqtai nazardan, sportni faqatgina g‘alaba vositasi sifatida emas, balki insoniy qadriyatlar maydoni sifatida ham ko‘rish zarur.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 9-moddasida fuqarolar va yuridik shaxslar o‘zlariga tegishli huquqlarni erkin amalga oshirishi, biroq bu huquqlar boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart ekani aniq belgilangan. Shuningdek, ushbu modda fuqarolik huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining halol, oqilona va adolatli harakat qilishini talab etadi. Huquqni suiiste’mol qilish, boshqalarga zarar yetkazish yoki huquqni uning asl maqsadiga zid ravishda amalga oshirish qat’iyan man etiladi.

Ushbu huquqiy norma sport sohasiga ham bevosita taalluqlidir. Chunki sport musobaqalari ham o‘z mohiyatiga ko‘ra huquqiy va axloqiy munosabatlar tizimidir. Har bir sportchi, murabbiy va tashkilotchi nafaqat sport qoidalariga, balki umumiy huquqiy va etik normalarga ham amal qilishi shart. Demak, sportda halollik faqatgina sport qoidasi emas, balki huquqiy va ijtimoiy majburiyat hamdir.

Shu bilan birga, sport musobaqalarini tashkil etishda har bir ishtirokchining huquq va manfaatlari to‘liq himoya qilinishi lozim. Adolatli turnir muhitini yaratish, sportchilarga teng sharoitlar taqdim etish hamda xavfsizlikni ta’minlash sport boshqaruv tizimining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Aks holda, g‘irromlik va adolatsizlikka zamin yaratiladi.

Sportdagi eng xavfli salbiy tendensiyalardan biri — bu raqibga nisbatan shafqatsizlik yoki uni ataylab jarohatlashga urinishdir. Bu holat sportning insonparvarlik mohiyatiga mutlaqo zid bo‘lib, sportchini oddiy raqib emas, balki “yengilishi kerak bo‘lgan obyekt” sifatida ko‘rish muammosini yuzaga keltiradi. Aslida esa sportning yuksak maqsadi — insonni jismonan va ma’naviy jihatdan kamol toptirishdir.

Shu sababli, zamonaviy sport tizimida eng muhim vazifa — yosh sportchilar ongida halollik, raqibga hurmat, sport etikasi va o‘zini boshqarish madaniyatini shakllantirishdir. Ta’lim jarayonida sportchiga “faqat g‘alaba qozonish shart” degan yondashuv emas, balki “qanday sharoitda bo‘lsa ham halol o‘ynash, raqibni hurmat qilish va insoniy qadriyatlarga rioya qilish” tamoyili singdirilishi zarur.

Ayniqsa, yosh sportchilarni tarbiyalashda psixologik va pedagogik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Ularga raqibni hurmat qilish, jarohat yoki noqulay vaziyatlarda bellashuvni to‘xtata bilish, sport etikasi va me’yorlariga amal qilish kabi ko‘nikmalar singdirilishi lozim.

ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-dekabrdagi PQ–4910-son qarori “Milliy antidoping agentligini tashkil etish to‘g‘risida”.
2. Drozdov, E. A., & Makarova, T. V. (2018). *Antidopingovoye obespecheniye v sporte vysshikh dostizheniy*. Moskva: Sovetskiy sport.
3. Rakhmonova, M. (2022). O‘zbekistonda dopinga qarshi kurashning huquqiy asoslari. *Sport va Jamiyat* ilmiy-amaliy jurnali, 2(1), 48–55.
4. WADA. (2021). *World Anti-Doping Code*. World Anti-Doping Agency. https://www.wada-ama.org
5. WADA. (2023). *Testing Figures Report 2022*. World Anti-Doping Agency. https://www.wada-ama.org/en/resources
6. Backhouse, S. H., Whitaker, L., & Petróczi, A. (2014). Gateway to doping? Supplement use in the context of preferred competitive situations, doping attitude, beliefs, and norms. *Scandinavian Journal of Medicine & Science in Sports, 23*(2), 244–252. https://doi.org/10.1111/sms.12113
7. Kazakh National Anti-Doping Centre. (2022). *Annual Report on Anti-Doping Testing and Violations*. Nursultan.
8. Uzbekistan National Anti-Doping Agency. (2023). *Dopinga qarshi kurash faoliyati bo‘yicha statistik ma’lumotlar*. Toshkent.
9. Jismoniy tarbiya va sport universiteti ilmiy-tadqiqot markazi (2022). *Yosh sportchilarning dopinga oid bilim darajasini o‘rganish bo‘yicha monitoring hisobotlari*. Toshkent.
10. Aschwanden C. (2019). Trans Athletes Are Posting Victories and Shaking up Sports.Wired Magazine, October 29, 2019. Available at: https://www.wired.com/story/the-glorious- victories-of-trans-athletes-are-shaking-up-sports/, accessed 01.12.2020.
11. 1. https://www.thefa.com
12. 2. https://gov.uz/oz/uznada
13. 3. https://lex.uz
14. 4. https://www.wada-ama.org
15. 5. https://ita.sport